

## ICHKI VA ZIYORAT TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMINI TASHKILLASHTIRISH

*Muallif: Bekkayev Jasur Shermaxmatovich,  
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti*

### **Annotatsiya**

Ichki turizm mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirishda muhim tarmoqlardan biri hisoblanib, ichki va ziyorat turizmi orqali avvalo yangi ishchi o'rirlari yaratiladi va infratuzilma obyektlari rekonstruksiya qilinib, aholining maroqli dam olishi ta'minlanadi

**Kalit so'zlar:** Ichki turizm, Ziyorat turizmi, Mexanizm, Turistik xizmatlar

Ichki va ziyorat turizmni rivojlantirishda davlat miqyosida katta e'tibor berib kelinmoqda. Xususan, 2021-yil 9-yanvardagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" dagi Farmoni, 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-son "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi va bugungi kunda uning amaliy ijrosi ustidan doimiy nazorat olib borilib, natijalar tahlil qilingan holda yuzaga kelgan kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmoqda. Olib borilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda alohining dam olish vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida istirohat bog'lari qaytadan zamon talabiga mos qilib qayta jihozlanib, turli xil atraksionlar olib kelib o'rnatilmoqda. Misol tariqasida O'zbekiston-Turkmaniston do'stligi sharafiga barpo etilgan Ashxobod istirohat bog'iga nafaqat mahalliy aholi balki chet eldan kelgan sayyoohlar oqimi ham keskin ortganini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, Toshkent City, Magic City kabi istirohat bog'lari va Ice City ham doimiy mehmonlar e'tiborini tortib kelmoqda. Ziyorat turizmiga ham bugungi kunda alohida e'tibor berilib, ota-bobolarimiz ziyorat joylari obod qilinib kelmoqda. Shular jumlasiga Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanida joylashgan Langar Ota ziyoratgohiga ham davlat miqyosida e'tibor berilib, yanada obod qilindi, ziyoratgohga olib boruvchi yo'llar holati yaxshilanib, ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratilgani bois bugungi kunda tashrif buyuruvchilar soni yana ham ko'paydi. Ziyoratgoh atrofidagi aholi uchun yangi ish o'rirlari yaratildi, aholi daromadi ko'paydi. Bunday misollar juda ko'p, shu bilan birga qilinishi kerak bo'lgan dolzarb ishlar ham bor, bu borada ushbu ziyoratgohlar haqida yana ham ko'proq ma'lumotlar to'plab, uni chet tillariga tarjima qilish va ijtimoiy tarmoqlarda ularning doimiy reklamasini ta'minlash zarur. Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan mexanizmni zamon talablariga mos qilib tadrijiy yangilab borish va uning amaliyatga tatbiq etilishini nazorat qilish albatta kutilgan natijalarini beradi. Alohining

daromadlarini oshishi va qo'shimcha dam olish kunlarini e'lon qilinishi natijasida ichki va ziyorat turizmiga bo'lgan talab ham kundan-kunga oshib bormoqda. Shu o'rinda mijozlarning maroqli dam olishlari uchun turizm xizmatlarining ham o'rni muhim hisoblanadi. Turistik xizmatlar turini ko'paytirish va eng muhimi uning sifatiga e'tibor berish zarur. Shu maqsadlarda mamlakatimizda chet el tajribasidan foydalanish, turistik xizmat ko'rsatuvchi hodimlar malakasini oshirish, mehmonxonalarda sifatli xizmat ko'rsatish bo'yicha qator ishlar olib borilmoqda. Xususan Amirsoy tog' dam olish maskani, Zomin tog' dam olish maskanlarida mehmonlar uchun turli xil turistik xizmatlar joriy etilib, alohimiz va chet ellik turistlarning yana ham ko'proq muddatda qolishlariga zamin yaratildi.

Xulosa qilib aytganda ichki va ziyorat turizmi bugungi kunning muhim tarmoqlari qatorida differsifikatsiya qilinmoqda va bu orqali alohining kambag'al qatlamini qisqartish, yangi ish o'rinalarini yaratish imkonini paydo bo'lmoqda. Shu maqsadlarni yanada ravnaq topishi uchun bugun madaniy meros obyektlari haqida yanada ko'proq o'rganib, ularni obod qilib, hamyurtlarimiz va chet ellik turistlarni ham qiziqishi orttirishimiz oldimizda turgan dolzARB vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun avvalo xizmatlar sifatini yuqori bosqichga olib chiqish, ularni tezligi oshirish, raqamli texnologiyalardan foydalanib turli xil tillarda ham foydalansa bo'ladigan qulay, oson va tushunarli ilovalarni yaratishimiz zarur. Shundagina oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishish imkonini yaratiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Ichki va kiruvchi turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish" iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya . Bakayev Ziyovuddin Toshbolta o'g'li
2. "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2018-yil 7-fevraldag'i PQ-3514-sон Qarori
3. "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2021-yil 9-yanvardagi PF-6165-sон Farmoni